



“HUDUDGAZTA'MINOT” AKSIYADORLIK JAMIYATINI TRANSFORMATSIYA QILISH OMILLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

PhD Xusanov Qaxramon Nishonovich
Iqtisodiyot bo'yicha falsafa doktori Toshkent
Kimiyo xalqaro universiteti tadqiqotchisi

https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss1/a62

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli transformatsiyaning bugungi kundagi dolzarbligi, iqtisodiy sohalarining raqamlashtirilishi yoritilgan. Bundan tashqari O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayoni va uning rivojlanishiga hissa qo'shadigan axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash. Muallif tomonidan xizmat ko'rsatish sohasida “Hududgazta'minot” aksiyadorlik jamiyatini virtual xizmatlarni joriy etish istiqbollari hamda axborot texnologiyalarini joriy etilishi o'rganilgan.

Tayanch so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, transformatsiya, raqamli transformatsiya, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, hududiy iqtisodiyot, raqamli infratuzilma, internet.

ФАКТОРЫ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ТРАНСФОРМАЦИИ АКЦИОНЕРНОГО ОБЩЕСТВА “HUDUDGAZTA'MINOT”

PhD Хусанов Кахрамон Нишонович
Доктор философии по экономике
научный исследователь Ташкентский
международный университет Кимё

Аннотация. В данной статье освещается актуальность цифровой трансформации и цифровизации отраслей экономики в настоящее время. Кроме того рассматривается, использование информационно-коммуникационных технологий способствующих процессу цифровой трансформации и ее развитию в Узбекистане. Автором изучены перспективы внедрения виртуальных услуг и информационных технологий в сфере услуг на примере АО «Худудгазтаминот».

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровизация, трансформация, цифровая трансформация, информационно-коммуникационные технологии, региональная экономика, цифровая инфраструктура, интернет.

FACTORS AND TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF THE TRANSFORMATION OF A JOINT-STOCK COMPANY “HUDGAZTA'MINOT”

PhD Khusanov Kaxramon Nishonovich
in Economics Scientific Researcher,
Kimyo Tashkent International University

Abstract. This article highlights the relevance of digital transformation today, digitization of economic sectors. In addition, the use of information and communication technologies that contribute to the digital transformation process and its development in Uzbekistan. The author studied the prospects of introducing virtual services and the introduction of information technologies in the “Hududgaztaminot” joint-stock company in the field of service.

Key words: digital economy, digitalization, transformation, digital transformation, information and communication technologies, regional economy, digital infrastructure, Internet.

Kirish. Bugungi kunda butun dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va ommalashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar tobora dolzarblashib bormoqda.

Globalashuv sharoitida mamlakatlar raqobatbardoshligini aniqlashda iqtisodiyotning raqamlashtirilganligi darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning qaysi bir tarmog'i yoki

sohasiga nazar tashlamaylik, barchasida raqamli texnologiyalarning o'rnini ko'ramiz

Zamonaviy texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda yangidan yangi raqamli instrumentlar paydo bo'lmoqda.

Raqamli transformatsiya jamiyatni yanada modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish salohiyatiga ega. Shu nuqtayi nazardan, amalga oshirilayotgan islohot-

lar, shuningdek, Yangi O'zbekistonning kelgusi besh yilga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida barcha asosiy sohalarni raqamlashtirish hamda mamlakatda haqiqiy axborot jamiyatini barpo etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston 2000-yillarning boshlaridanoq axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ni rivojlantirish va raqamlashtirishga ustuvor ahamiyat bera boshladi. Jumladan, "2013-2020-yillarda O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi", "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" hamda "Raqamli O'zbekiston - 2030" va "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da milliy iqtisodiyot, sanoat va umuman jamiyatda raqamli transformatsiyani amalga oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. S.Matt va boshqalar fikrlariga ko'ra "Har qanday tashkilotning raqamli transformatsiyalashuvi strategiyasi texnologiyalardan foydalanish, qiymat yaratish jarayonidagi o'zgarishlar, tuzilmaviy o'zgarishlar va moliyaviy jihatlarni qamrab olishi zarurligini ta'kidlashadi" – deb aytadi [1].

B. Horlach va boshqalarning fikrlariga ko'ra "Raqamli transformatsiya savdo va aloqa kanallarini raqamlashtirish va jismoniy takliflarni almashish yoki kengaytirish imkonini beradigan firma takliflarini (mahsulotlari va xizmatlarini) raqamlashtirishni o'z ichiga oladi" [2].

K. Liere-Netheler va boshqalarning fikrlariga ko'ra "Raqamli transformatsiya – bu biznesni sezilarli darajada takomillashtirish (mijozlar tajribasini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, operatsiyalarni soddalashtirish yoki yangi biznes modellarini yaratish kabi) uchun yangi raqamli texnologiyalardan (ijtimoiy media, mobil, tahliliy yoki o'rnatilgan qurilmalar) foydalanishdir" [3].

C.Gebayew va boshqalarning fikrlariga ko'ra "Raqamli transformatsiya – bu raqamli texnologiyalarni biznesning barcha tarmoqlariga integratsiyalashuvi bo'lib, ish uslubi va mijozlarga qiymat yetkazib berishni tubdan o'zgartiradi" [4].

Westerman, G. fikriga ko'ra "Raqamli transformatsiya – kompyuter texnologiyalarining ortib borayotgan ta'siri va imkoniyatlariga javoban biznes faoliyatini amalga oshirish, korxonalar natijadorligi, hodisalar, amaliyotlar va modellar samaradorligini oshirishning tezkor texnologik innovatsiyasidir" [5].

D.Liu va boshqalarning fikrlariga ko'ra "Raqamli transformatsiya raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalar va biznes jarayonlari integratsiyasini ta'minlaydigan tashkiliy transformatsiyadir" [6].

B.Kumar fikriga ko'ra "Raqamli texnologiyalarning o'zgarishlari va imkoniyatlari hamda ularning jamiyatga ta'siridan strategik va ustuvor tarzda to'liq foydalanish uchun biznes faoliyati, jarayonlari, vakolatlari va modellarini tezlashtiruvchi chuqur transformatsiyadir" [7].

T.Hess fikriga ko'ra "Raqamli transformatsiya raqamli texnologiyalarning kompaniyaning biznes modeliga kiritishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, natijada mahsulot yoki tashkiliy tuzilmalar o'zgarishi yoki jarayonlarni avtomatlashtirish yuz beradi" [8].

S. Bondar va boshqalarning fikriga ko'ra, "Raqamli transformatsiya iqtisodiyot barcha sektorlarining izchil hamkorlikka kirishishi va raqamli iqtisodiyotning yangi muhitiga moslashishidir" [9].

Maqolamizni davom etar ekanmiz, shu yerda raqamli transformatsiya mualliflik ta'rif berib o'tsak.

Raqamli transformatsiya - bu kompaniyaning biznes jarayonlariga yangi texnologiyalarni joriy etish usuli bo'lib, unda raqamli texnologiyalaridan biznes faoliyatini o'zgartirish va yaxshilash uchun foydalaniladi. Buning hisobiga uning miqyosi kengayib, yanada samarali va daromadliroq bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida qiyosiy va tarkibiy tahlil, raqamli transformatsiya faoliyati yaqindan o'rganildi va ma'lumotlar bazasi yig'ildi. To'plangan ma'lumotlar asosida kuzatish va iqtisodiy tahlilni qiyoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy yondashuv kabi usullardan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Kompaniyalarda ishlab chiqarishni, texnologik va tijorat sohaslarining boshqaruv faoliyati to'g'risidagi axborotlarni kompyuter texnologiyalari va usullari orqali qayta ishlash hamda boshqaruvni takomillashtirish bugungi kun boshqaruv sohasi mutaxassislarining dolzarb mavzusini tashkil etadi. Hozirgi kunda bu ishlanmalar xo'jalik subyektlarining barcha ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sektorlarida biznes-jarayonlarini modernizatsiya qilish va intensivlashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Kompyuterda ma'lumotlarni qayta ishlash, biznes jarayonlarni modelashtirish inson faoliyatining ko'plab sohaslarida ilmiy-texnik rivojlanishning muhim qismini tashkil etmoqda. Iqtisodiyotni samarali boshqarishda ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlash hajmi-


XIMZAT KO'RSATISH

ning ortib borishi iqtisodiyotga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) katta tezlik bilan kirib kelayotganini anglatadi.

Raqamlashtirish dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shu sohadagi butun jahon hamjamiyati tamoyillariga rioya etish maqsadga muvofiq: -axborot sektorining ustuvorligini tan olish. Muvaffaqiyatli iqtisodiy rivojlanishning asosi - milliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga qodir yangi infratuzilma va xizmatlar sohasini yaratish; -mamlakatni raqamlashtirishning asosiy maqsadi kommunikatsiya va axborotlarni qayta ishlash hisobiga fuqarolarning farovonligini ta'minlashdan iborat. Avtomatlashtirilgan tashkiliy boshqaruv tizimlari va AKTni joriy etish mu-

rakkab ilmiy, keng qamrovli ilmiy-texnik muammo bo'lib qolmoqda.


Mamlakatimiz kompaniyalarida raqamlashtirish borasida bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, "Hududgazta'minot" aksiyadorlik jamiyatini tomonidan respublika gazni hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimiga mos keluvchi hisoblagichlarni o'rnatish ishlari jadal amalga oshirilmoqda. "Hududgazta'minot" aksiyadorlik jamiyatining gazni hisobga olishni avtomatlashtirish markazi tashkil etilgan bo'lib, tizimga ulangan gaz hisoblagichlarda qirqqa yaqin ma'lumotlarni ko'rish imkoniyati mavjud bo'lib, ularning yaroqlilik muddati o'rtacha 25 yilgacha xizmat qiladi.



1-rasm. Raqamlashtirish jarayonlari natijadorligi dinamikasi

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki tibbiy gaz 2020-yilga nisbatan 2023-yilga ASKUG hisoblagich joriy etilganligi hisobga olingan yo'

qotishlar me'rdan tashqari yo'qotishlar tushmoqda. Bu esa korxonani raqamlashtirish orqali daromadga chiqishiga olib keladi.



2-rasm. Suyultirilgan gazni ishlab chiqarish zavodlaridan yakuniy iste'molchilarga yetkazib berishdagi xarajatlarning o'zgarish

“Hududgazta’minot” aksiyadorlik jamiyati nafaqat tabiiy gaz balki suyultirilgan gazni yetkazib berishda ishlarni olib boradi. Quyidagi rasmda 2019-2023-yillar davomida suyultirilgan gazni ishlab chiqarish zavodlaridan yakuniy iste’molchilarga yetkazib berishdagi xarajatlarning o’zgarish dinamikasi aks ettirilgan.

Yuqoridagi rasmda ko’rinib turibdiki suyultirilgan gazni yetkazib berish sohasini transfor-

matsiya qilinishi natijasida 2019-yildan 2023-yilga qadar suyultirilgan gaz xaridi narxi oshmagan chunki chekka hududlardagi aholining ijtimoiy iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadida. Buning natijasida 3 700 000 gaz balonlariga ID kartalari hamda 4 700 000 bar kodi biriktirdi.

Tabiiy va suyultirilgan gaz ta’minoti jaryonlarining raqamlashtirish natijasida quyidagilar amalga oshirildi:

Tabiiy gaz raqamlashtirish



Askug Billing – aholi iste’molchilarining tabiiy gaz hisobi va nazoratini yuritishga ixtisoslashgan dastur ishga tushirilgan.



Askug Yur – ulgurji iste’molchilarining tabiiy gaz hisobi va nazoratini yuritishga ixtisoslashgan dastur ishga tushirilgan.



Askug Balance – hududlar chegarasida o’rnatilgan hisoblagichlar ko’rsatkichlarini modem qurilmalari yordamida nazorat qilish, hududga kirib kelgan gaz quvurlari yo’nalishi va chegara o’rnatilgan hisoblagichlarni dastur orqali nazorat qilish ishga tushirilgan



Gaz taqsimlash punkti boshqaruvi – gaz taqsimlash punktlari holati va unga xizmat ko’rsatuvchi xodimlar faoliyati tahlilini onlayn nazorat qilish tizimi ishga tushirilgan.



Gaz quvurlarini boshqarish – tabiiy gaz tarmoqlari holati va unga xizmat ko’rsatuvchi xodimlar faoliyati tahlilini onlayn nazorat qilish tizimi ishga tushirilgan.



ArcGIS – gaz taqsimlash tarmoqlari, shuningdek bino inshootlarning elektron topografik xaritalari shakllantirilib, geoinformatsiya tizimi joriy etilmoqda.



Vaziyatlar markazi – gaz taqsimlash stansiyalaridan iste’molchilarga yo’naltirilayotgan kunlik tabiiy gaz hajmlarini avtomatik ravishda shakllantirish imkoniyati joriy etilmoqda.



Ulgurji iste’molchilar gaz jihozlariga xizmat ko’rsatish bo’yicha avtomatlashtirilgan tizim joriy etilmoqda.



Tabiiy gaz ta’minotidagi huquqbuzarliklar bo’yicha tuzilgan dalolatnomalarni elektron shaklda rasmiylashtirish va tegishli ma’lumotlarni “E-ma’muriy ish” tizimiga yuborish joriy etilmoqda.

Suyultirilgan gaz



E-Gaz – suyultirilgan gaz hisobi va nazoratining avtomatlashtirilgan



GPS – suyultirilgan gazni iste'molchilarga yetkazib berish jarayoni nazorati ishga tushirilgan.



Videonazorat — iste'molchilarga suyultirilgan gazni yetkazib berish jumladan, gaz balonlarini to'ldirish jarayonlari onlayn nazorat qilish imkoniyati yaratilib, shaffoflik ta'minlash ishga tushirilgan.



ID-kartalar — iste'molchilar maxsus ID-kartalar bilan ta'minlanib, iste'molchilar tomonidan to'lovlarni o'zlariga qulay vaqtlarda amalga oshirish imkoniyati yaratildi.



Stikerlar – iste'molchilarda foydalanishda bo'lgan maishiy gaz balonlari bar-kodli stikerlar bilan ta'minlanib, balonlar harakatini onlayn nazorat qilish imkoniyati yaratildi.



Xavfsizlik texnikasi boshqaruvi — texnik jarayonlarni tartibga solish orqali sanoat va mehnat xavfsizligi dasturi joriy etildi.



Suyultirilgan gaz iste'molchilarining gaz jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish.



Suyultirilgan gaz yetkazib berish uchun Davlat xizmatlari agentligi orqali onlayn ariza yuborish tizimi joriy etilmoqda.



UZGPS axborot tizimini E-Gaz axborot tizimiga integratsiya qilinmoqda.



HGT Service – iste'molchilarning gaz jihozlarini texnik ko'rikdan o'tkazish tizimini takomillashtirish hamda mas'ul xodimlar faoliyatini "onlayn" nazorat qilish va ularga munosib xaq to'lash maqsadida HGT Service dasturi ishga tushirilgan.

Ushbu tadbirlarni "Hududgazta'minot" aksiyadorlik jamiyati amalga oshirildi va natijada korxonaning moliyaviy barqarorligini oshishiga erishildi.

Xulosa va takliflar. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasi doirasida iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlari va ijtimoiy sohani raqamli o'zgartirishga qaratilgan davlat siyosati chora-tadbirlari belgilandi. Unda 2030-yilgacha bo'lgan davrda raqamli transformatsiyani amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning milliy maqsadlaridan biri sifatida belgilangan.

Bizningcha, raqamli transformatsiya jaryonini samarali amalga oshirish uchun kompleks axborot tizimlarini shakllantirish (maqsad), jaryonni tarkibiy qismlarga bo'lish (tahlil), loyihani amalga oshirish rejasini tuzish hamda uni amaliyotga joriy etish (natija) mumkin. Bu bilan o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lgan ekspertlarning butun bir jamoasi shug'ullanishi maqsadga muvofiq. Yetuk mutaxassis – ekspertlarning yetarli emasligini hisobga olgan holda, transformatsiyalashni outsorsingga berish orqali ijobiy natijaga erishish mumkin. Chunki mahalliy bozor-

da zaruriy bilimlarga ega bo'lgan oliy malakali kadrlarning yetishmasligi ham katta muammo

Xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyot va uning texnologiyalarining iqtisodiyotning real sektoriga (korxonalar va firmalarga) kirib borishi natijasida YAİM ning o'sib borishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida mehnat unumdorligining ortishi, modernizatsiyalash jarayonining sifat va vaqt jihatdan jadallashishi, qo'l mehnatining qisqarib borishi, intellektual mehnat turlarining ko'payishi hisobiga yangi

ish o'rinlari yaratilishi (dasturchilar, frilanserlar xizmatidan keng foydalanish), yangi mahsulot va xizmat turlarining paydo bo'lishi va boshqalar raqamli iqtisodiyotning multiplikativ samarasini (qiymat yaratish "zanjiri" bo'yicha jarayonlarni raqamlashtirish va integratsiyalash, mahsulot va xizmatlarni raqamlashtirish, raqamli biznes-modellar va mijozlarga ma'lum axborotlarga kirish hamda ulardan foydalanishga ruxsat berish, rivojlangan texnologik platformalar shular jumlasidandir) yanada oshirib boradi.

Manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Matt, C., Hess, T., & Benlian, A. (2015). *Digital Transformation Strategies*. *Business & Information Systems Engineering*, 57(5), 339–343
2. Horlach, B., Drews, P., Schirmer, I. and T. Böhmman (2017). "Increasing the Agility of IT Delivery: Five Types of Bimodal IT Organization." In: *Proceedings of the Hawaiian International Conference on System Sciences*. Hawaii: USA.
3. Liere-Netheler, K., Vogelsang, K., Packmohr, S., & Hoppe, U. (2018). *Towards a framework for digital transformation success in manufacturing*. In: *Proceedings of the 26th European Conference on Information Systems*, Portsmouth, UK.
4. Gebayew, C., Hardini, I. R., Panjaitan, G. H. A., Kurniawan, N. B., & Suhardi. (2018). *A Systematic Literature Review on Digital Transformation*. *2018 International Conference on Information Technology Systems and Innovation (ICITSI)*. doi:10.1109/icitsi.2018.8695912
5. Westerman, G. (2015). *Revamping your business through digital transformation*. *MIT Sloan Management Review*, 56(3), 2-5, ISSN 15329194.
6. Liu, D., Chen, S., Chou, T. (2011). *Resource fit in digital transformation: Lessons learned from the CBC Bank global e-banking project*. *Management Decision*, 49(10), 1728– 1742.
7. Kumar B. N., "Digital Transformation and its impact on Human Resource Management," 2016.
8. Hess, T. (2016). *Options for formulating a digital transformation strategy*. *MIS Quarterly Executive*, 15(2), 123-139, ISSN 15401960
9. Bondar, S., Hsu, J. C., Pfouga, A., Stjepandić, J. (2017). *Agile digital transformation of system-of-systems architecture models using Zachman framework*. *Journal of Industrial Information Integration*, 7, 33–43.